

### XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



**Ish haqi.** 2019 yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



**Ta'limda** 998 ta muassasada 57829 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 558870,4 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 42,2 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1587,1 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 136,5 %ga o'sdi;



**Sanoatda** 32 ta korxonada 11393 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 9,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 169210,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,8 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2426,1 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 126,3 %ga o'sdi;



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** 62 tamuassasada 22614 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 215328,9 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 16,3 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1571,2 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 138,4 %ga o'sdi;



**Tashish va saqlashda** 7 ta korxonada 2461 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 34918,6 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,6 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2362,2 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 109,6 %ga o'sdi;



**Moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 31 ta muassasada 3021 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 62917,5 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,8 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ishhaqi 3440,4 mln. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 129,2 %ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1778532,4 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 134,4 % ga o'sishi kuzatildi.

#### Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni



(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

|   | Korxona va tashkilotlar soni ( birlik) |             | O'sish sur'ati, % | Xodimlar soni, kishi |               | O'sish sur'ati % | ulushi       |
|---|--|-------------|-------------------|----------------------|---------------|------------------|--------------|
|   | 2018y                                  | 2019 y.     |                   | 2018 y.              | 2019 y.       |                  |              |
| <b>Xorazm viloyati</b>                    | <b>1529</b>                            | <b>1588</b> | <b>103,9</b>      | <b>118392</b>        | <b>124017</b> | <b>104,8</b>     | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                      |  |             |                   |                      |               |                  |              |
| Sanoat                                    | 31                                     | 32          | 103,2             | 11952                | 11393         | 95,3             | 9,2          |
| Qurilish                                  | 11                                     | 12          | 109,1             | 1429                 | 1376          | 96,3             | 1,1          |
| Savdo                                     | 21                                     | 26          | 123,8             | 2113                 | 2245          | 106,2            | 1,8          |
| Tashish va saqlash                        | 7                                      | 7           | 100,0             | 2501                 | 2461          | 98,4             | 2,0          |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 10                                     | 12          | 120,0             | 45                   | 115           | 2,6 marta        | 0,1          |
| Axborot va aloqa                          | 18                                     | 17          | 94,4              | 828                  | 812           | 98,1             | 0,7          |
| Moliyaviy va sug'urta faoliyati           | 29                                     | 31          | 106,9             | 3021                 | 3021          | 100,0            | 2,5          |
| Ta'lim                                    | 969                                    | 998         | 103,0             | 56515                | 57829         | 102,3            | 46,6         |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy             | 62                                     | 62          | 100,0             | 21473                | 22614         | 105,3            | 18,2         |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish       | 41                                     | 42          | 102,4             | 1607                 | 1656          | 103,0            | 1,3          |
| Boshqa faoliyat turlari                   | 330                                    | 349         | 105,8             | 16908                | 20495         | 121,2            | 16,5         |

**Sohalar kesimida ish haqi fondi va  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub‘ektlaridan tashqari, so‘m)


|                        | <i>Ish haqi fondi,<br/>mln. so‘m<br/>(yanvar-iyun)</i> |                  | <i>O‘sinh<br/>sur‘ati, %</i> | <i>O‘rtacha oylik ish haqi,<br/>so‘m (yanvar-iyun)</i> |                  | <i>O‘sinh<br/>sur‘ati,<br/>%</i> |
|------------------------|--|------------------|------------------------------|--|------------------|----------------------------------|
|                        | <i>2018 yil</i>  | <i>2019 yil</i>  |                              | <i>2018 yil</i>  | <i>2019 yil</i>  |                                  |
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>939609,8</b>  | <b>1323409,5</b> | <b>140,8</b>                 | <b>1323104,0</b>                                       | <b>1778532,4</b> | <b>134,4</b>                     |

*jumladan:*

|   |          |           |           |             |             |       |
|---|----------|-----------|-----------|-------------|-------------|-------|
| Sanoat                                    | 140074,7 | 169 210,7 | 120,8     | 1953295,5   | 2426135,5   | 126,3 |
| Qurilish                                  | 11389,2  | 13 052 ,2 | 114,6     | 1328344,2   | 1567768,7   | 118,0 |
| Savdo                                     | 20011,6  | 28 254,9  | 141,2     | 1578447,8   | 1968654,1   | 124,7 |
| Tashish va saqlash                        | 32356,3  | 34 918,6  | 107,9     | 2156223,2   | 2 362 162,3 | 109,6 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 254,5    | 632,9     | 2,5 marta | 942764,7    | 908 242,1   | 96,3  |
| Axborot va aloqa                          | 8093,2   | 10 135,6  | 125,2     | 1629056,8   | 2 070 669,9 | 127,1 |
| Moliyaviy va sug‘urta faoliyati           | 48 267,1 | 62 197,5  | 128,9     | 2 662 866,2 | 3 440 420,8 | 129,2 |
| Ta’lim                                    | 394287,5 | 558 870,4 | 141,7     | 1162781,3   | 1 587 087,6 | 136,5 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy             | 146243,3 | 215 328,9 | 147,2     | 1135094,8   | 1 571 199,6 | 158,4 |
| San’at, ko‘ngil ochish va dam olish       | 9781,5   | 13 606,3  | 139,1     | 1014465,5   | 1 321 524,1 | 130,3 |
| Boshqa faoliyat turlari                   | 128850,9 | 217 201,5 | 168,6     | 1259818,6   | 1 748 131,8 | 138,8 |

2019 yil yanvar-iyun oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida 138,4 %, ta'limda 136,5 %, san'at, ko'ngil ochish va dam olish 130,3 %, moliyaviy va sug'urta faoliyati 129,2 %, sanoatda 126,3 %, savdoda 124,7 %, kuzatildi.


**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati**  
(2019 yil yanvar-iyunda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashkari) so'mda




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 2009787,1 so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 116,4 %), Xazarasp tumanida 1850456,5 so'mni (107,2 %) tashkil etgan bo'lsa, Qo'shko'pir tumanida 1419897,4 so'mni (82,3%), Shovot tumanida 1446758,3 so'mni (83,8 %) va Yangibozor tumanida 1483350,9 so'mni (85,9%) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2018 yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil yanvar-iyun oylarida 577172,3 so'mni tashkil etgan Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18-yanvardagi 47- sonli qaroriga binoan, Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirilish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsientlari oshirildi ) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish xaqi viloyat ta'limiga nisbatan**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari, so'm)

|                        | <i>2019 yil yanvar-iyun<br/>oylarida o'rtacha oylik ish<br/>haqi, so'm</i> | <i>Viloyatga nisbatan<br/>foizda</i> |
|------------------------|--|--------------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>1 587 087,6</b>   | <b>100,0</b>                         |
| shaharlar:             |  |                                      |
| Urganch                | 1 911 320,6  | 120,4                                |
| Xiva                   | 1 520 939,7  | 95,8                                 |
| tumanlar:              |  |                                      |
| Bog'ot                 | 1 514 022,8  | 95,4                                 |
| Gurlan                 | 1 414 282,1  | 89,1                                 |
| Qo'shko'pir            | 1 420 331,8  | 89,5                                 |
| Urganch                | 1 577 039,3  | 99,4                                 |
| Xazorasp               | 1 536 681,0  | 6,8                                  |
| Xonqa                  | 1 633 247,9  | 102,9                                |
| Xiva                   | 1 588 314,5  | 100,1                                |
| Shovot                 | 1 469 643,0  | 92,6                                 |
| Yangiariq              | 1 673 461,7  | 105,4                                |
| Yangibozor             | 1 413 822,4  | 89,1                                 |

**Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish' haqi**  
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, so'm)*

